




RANGTASVIR

(PLENER)

o'quv qo'llanma

X. X. Ibragimov

749
I-25

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

IBRAGIMOV XURSHID XASANOVICH

RANGTASVIR

(Plener)

O'quv qo'llanma

- 14540/4 -



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

IBRAGIMOV XURSHID XASANOVICH

RANGTASVIR

(Plener)

O'quv qo'llanma

60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi

Chirchiq – 2024

Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'limning 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada tasviriy san'atning asosiy negizi hisoblangan, qalamtasvir va rangtasvir fanlarini o'rganishda o'quv amaliyotining ahamiyati ochib berilgan. Bundan tashqari o'quv amaliyoti ishlarini tashkil qilish mazmuni, metodlari, ularni qo'llashga oid metodik va amaliy tavsiyalar, mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarishda foydalaniladigan adabiyotlar keltirilgan.

Аннотация

Настоящее учебное пособие предназначено для студентов высших учебных заведений 60111200-Изобразительное искусство и инженерная графика. В учебнике раскрываются основные основы изобразительного искусства, значение учебной практики при изучении рисунка и живописи. Кроме того, представлены содержание, методы, методические и практические рекомендации по их применению, задания для самостоятельной работы и использованная при их выполнении литература.

Abstract

This study guide is intended for students of higher education 60111200-Fine arts and engineering graphics. In the textbook, the main basis of fine art is revealed, the importance of educational practice in the study of drawing and painting. In addition, the content, methods, methodical and practical recommendations for their application, independent work assignments and the literature used in their implementation are presented.

UO‘K 741;76.01

KBK 85.1

I-25

X.X. Ibragimov / RANGTASVIR (Plener)/O‘quv qo‘llanma – Toshkent:
“Renesains sari”, 2024. – 220 bet.

Muallif:

X.X.Ibragimov – CHDPU Tasviriy san‘at va dizayn kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

I.R.Abdurahmonov – O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat instituti
San‘atshunoslik kafedrası dotsenti, s.f.n. (PhD).

B.B.Baymetov – CHDPU Tasviriy san‘at va dizayn kafedrası
professori, p.f.n.

UO‘K 741;76.01

KBK 85.1

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil “29” sentabridagi “438”- son buyrug‘iga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9910-9399-5-2

© Ibragimov X.X. 2024

©“Renesains sari”, 2024

KIRISH

Zamonaviy ta‘limning rivojlanishi faqatgina fanlarni o‘rganishning zamonaviy usullarini modernizatsiyalash uchun xizmat qiladigan axborot texnologiyalarining takomillashuvi bilan emas, balki ilmiy-ta‘lim axborotning yangi manbalari mavjudligi bilan ham belgilanadi. Qimmatli axborot manbalaridan foydalanishga bo‘lgan imkoniyatning mavjudligi o‘quv materiallari sifatining bir necha bor ortishiga, shuningdek, olingan bilimlarni ilmiy va kasbiy faoliyatda qo‘llashga imkon yaratadi. Bu borada hukumatimizning bir qator qonunlari, qaror va farmonlari mavjud. Mazkur qonunlar va qonunosti xujjatlar ijrosi yuzasidan ham Oliy ta‘limda juda katta amaliy o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Xususan, mutaxassislik xususiyatlardan kelib chiqib o‘quv jarayonida malakaviy (o‘quv) amaliyotlar soatlari oshirildi. O‘quv amaliyotlarini sifatli o‘tkazish bo‘yicha barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim sifatiga, kadrlarning zamonaviy raqobatbardosh bo‘lib yetishisharida zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

G‘arbning yetakchi mamlakatlarida ilg‘or ta‘lim metodlaridan foydalanish nafaqat o‘quv faoliyatida, balki talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarida ham muhim o‘rin tutadi. Ijodiy asarlar yaratish, bitiruv malakaviy ishlarining amaliy-ijodiy tomonlarini tayyorlash, Magistrlik dissertatsiyasining amaliy amaliy-ijodiy ishlarini bajarishda ilmiy ilmiy asos hisoblanadi.

Tabiat go‘zalligi uning takrorlanmasligi o‘ziga xosdir. Quyosh nuri va atrofigimizni o‘rab turgan muhit (ranglar) bo‘yoqlar garmoniyasining bitmas-tuganmas manbaidir. Tabiatning insonga chuqur ta‘siri, uning inson xisssiyotiga, tafakkuriga ta‘siri, tasviriy san‘atda manzara janrining vujudga kelishiga turtki bo‘ldi.

Manzara janrida yaratilgan tasviriy san‘at asarlari bilan tanishish inson ruhiy dunyosini mustahkamlaydi, ichki olamini boyitadi. Tabiat go‘zalligini

haqqoniy tasvirlash, unga nisbatan rassom munosabatini belgilaydi, manzara janri inson hissiyotini tarbiyalashning muxim omili xisoblanadi.

Tabiatni o'rganish va professional mahoratni rivojlantirish, manzarachi-rassomning shakllanishida o'zaro uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Manzara tasvirlashga ijodiy yondashish, tabiatda bevosita olingan ta'surotlarga, undan kuzatuvlar natijalariga asoslanadi. Tabiat bilan uzoq muddat muloqotda bo'lish bilan rassomda manzara kompozitsiyasining g'oyasi tug'iladi, uning ko'rinishi shakllanadi. Mashhur rassomlardan biri shunday degan edi: "Etyudlar ustida ishlash – bu eng yuqori maktab xisoblanadi". Shu bois manzara rangtasviri, manzara qalamtasvirini bajarishga o'rgatish, manzarachi rassom tarbiyalashning asosiy va muhim omili xisoblanadi, plener amaliyoti rangtasvir kursini asosiy bo'limidir.

Plener o'zi nima? Plener so'zi fransuzchadan olingan bo'lib "plien air" - ya'ni "erkin havo" ma'nosini anglatib, ochiq havoda bajarilgan tasviriy san'at asarlarini nazarda tutadi. Plenerda etyud bajariladi, xona ichida etyud bajarishdan biroz farq qiladi.

Yorug'likning ko'pligi, reflekslarning xilma-xilligi manzaradagi obyektlarni katta uzoqlikda joylashishi, yorug'lik manbaining tez o'zgarishi, uning tabiat holatiga, yil fasliga bog'liqligi – bularning hammasi yangi va noodatiy sharoit tajribasiga ega bo'lmagan manzarachi rassomga oldindan bajariladigan jarayonni murakkablashtirib yuboradi.

Manzara etyudining asosiy yutuqlari – tabiatning ma'lum bir holatdagi yoritilishi, havo muhiti va fazoviy kenglik shular jumlasidandir. Bularning barchasini tasvirlashda rassom bo'yoqlar orqali rang munosabatlarini ko'rib chiqish bilan erishadi. Rassomning professional maxoratini shakllantirish ushbu qo'llanmaning mazmunini tashkil etadi.

Shu bilan birga, ushbu o'quv qo'llanma o'tmishdagi va zamonaviy tasviriy san'at tajribalariga asoslangan holda plener rangtasvirining o'ziga xosligini yoritib beradi, mashg'ulotlarning mohiyatini ochib beradi va shu soha bo'yicha metodik,

amaliy tavsiyalar beradi, shuningdek, "Plener" dasturi bo'yicha mashqlarni bajarish uchun mazmunli maslahat beradi.

Plener amaliyotining mohiyatini, malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan mashq va mashg'ulotlar turkumi tashkil etilgan. Bunda o'quv kompozitsiyalarini yaratishda yoki bajarishning o'ziga xosliklaridan iborat, ular talabalarga ijodiy muammolarni mustaqil ravishda hal etishga tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan.